

**TA'LIMNI RIVOJLANTIRISHNING YANGI BOSQICHIDA PEDAGOGIK  
TEXNOLOGIYANING MOHIYATI VA MUAMMOLARI.**

**Nosirova Feruza Baxodir qizi**

*Osiyo Xalqaro Universiteti boshlang'ich ta 'lim yo'naliishi magistranti*

*Ilmiy rahbari: Tillaboyeva Matlab Muhammadovna*

**Annatatsiya.** *Ushbu maqolada ta'limgan rivojlantirishning yangi bosqichida pedagogik texnologiyaning mohiyati va muammolari yoritilgan.*

*Shuningdek, mazkur maqolada ta'limgan jarayonida innovatsion pedagogik texnologiyalarini qo'llash samarasi haqida fikr yuritilgan va ta'limgan muassasalarida ta'limgan jarayoniga yangicha yondashish borasida takliflar berilgan o'qituvchi va talaba o'rtasidagi munosabatlari, Muammoli o'qitish tizimi haqida ma'lumotlar berilgan.*

**Kalit so'zlar:** pedagogika fani, zamonaviy pedagogik texnologiyalar, ta'limgan tamoyillari, ta'limgan muammolari,

*XXI asr boshlanishida insoniyat misli ko'rilmagan ilmiy - texnikaviy mo'jizalar guvohi bo'lmoqda. Mo'jizalar darajasida sodir bo'ladigan ilmiy - texnikaviy yutuqlar uchun shubxasiz, o'tmishdagi fan, texnika va texnologiyaning natijalari zamin yaratdi.*

Respublikamiz Prezidenti Sh. Mirziyoyev ta'kidlaganidek: —Bugun biz davlat va jamiyat hayotining barcha sohalarini tubdan yangilashga qaratilgan innovatsion rivojlanish yo'lliga, o'tmoqdamiz. Bu bejiz emas, albatta. Chunki, zamon shiddat bilan rivojlanib borayotgan hozirgi davrda kim yutadi? Yangi fikr, yangi g'oyaga, innovatsiyaga tayangan davlat yutadi. [1]

Xo'sh pedagogik texnologiya nima? Uni amaliyotga qanday joriy qilish mumkin? Dastlab «Texnologiya» tushunchasiga aniqlik kiritaylik. Bu so'z fanga 1872 yilda kirib keldi va grekcha ikki so'zdan - «texnos» - hunar va «logos» - fan, so'zlaridan tashkil topib, «hunar fani» ma'nosini anglatadi. Biroq bu ifoda zamonaviy texnologik jarayonni to'liq tavsiflab bera olmaydi, texnologik jarayon deyilganda-mehnat qurollari bilan mehnat vositalariga ta'sir etish natijasida mahsulot yaratish bo'yicha qilingan mehnat va jarayonlar tushuniladi. Demak, bu ta'rifi istalgancha sharhlash mumkin, bunda: pedagogik texnologiya-bu o'qituvchi tomonidan o'qitish vositalari yordamida o'quvchilarga ta'sir ko'rsatish va bu faoliyat mahsuli sifatida ularda muayyan shaxs sifatlarini shakllantirish jarayoni, deb ta'riflasak xato bo'lmaydi. Qator yillardan beri, pedagogik texnologiyaga o'quv jarayonini texnik vositalar yordamida amalga oshirish, deb qarab kelindi. Faqat 70-yillardan boshlab pedagogik adabiyotlarda bu tushuncha yangicha talqin etila boshlandi. Texnologiya deganda, sub'ekt tomonidan ob'ektga ko'rsatilgan ta'sir natijasida sub'ektda sifat o'zgarishiga olib keluvchi jarayon tushuniladi.

XX asrning ikkinchi yarmida «Pedagogik texnologiya»ning fan sifatida vujudga kelishi va uning asosiy rivojlanish bosqichlari, o'qitish tizimining rivojlanish ob'ektivligi yaqqol aks ettirilgan. Zamonaviy rivojlanish, fan jamiyatning bevosita ishlab chiqarish kuchiga aylanganligi bilan belgilanadi. Shu bilan birga, pedagogik texnologiyaning paydo bo'lishi, o'qituvchilik faoliyati ham, boshqa ishlab chiqarish faoliyatlaridek, faoliyat turi ekanligi bilan bog'liqdir. Pedagogik texnologiya atamasi, hali yakdillik bilan izohlanmagan, shuning uchun uning turlicha ta'riflari mavjud, lekin atamaning yakdillik bilan izohlanmaganini inobatga olib, unga

nufuzli YuNESKO tashkiloti tomonidan berilgan ta'rifiga murojaat qilish maqsadga muvofiqdir. Pedagogik texnologiya - bu o'z oldiga ta'lim shakllarini maqbullashtirish vazifasini qo'yishni, texnika va inson resurslarini va ularni o'zaro ta'siri aloqasini hisobga olgan holda butun o'qitish va bilimlarni o'zlashtirish jarayonini yaratish, qo'llash va aniqlashning tizimli yondoshuvidir. Pedagogik texnologiyaning - tizimlilik va samaradorlik kabi zaruriy omillarini alohida ta'kidlash mumkin. Bunga pedagogik texnologiyaning zaruriy tashkil etuvchi omili deb yana qayta takrorlanishni qo'shish lozim bo'ladi. Yuqoridagilarni e'tiborga olib, pedagogik texnologiya faniga qo'ydagicha ta'rif berish mumkin.

Pedagogik texnologiya - ommaviy ta'lim sharoitida maqsadga yo'naltirilgan, boshqariladigan, rejalashtirilgan natijalarga kafolatli erishish mumkin bo'lgan, qayta takrorlaydigan samarali o'quv jarayonini yaratish va qo'llash to'g'risidagi fan.

Zamonaviy pedagogik texnologiya mohiyat - e'tibori jihatidan boshqa texnologiyalar bilan bir safda turadi, chunki ular ham boshqalari qatori o'z xususiy sohasiga, metodlari va vositalariga egadir. Biroq zamonaviy pedagogik texnologiya inson ongi bilan bog'liq bilimlar sohasi sifatida murakkab va hammaga ham tushunarli bo'lmasan pedagogik jarayonni ifoda etishi bilan ishlab chiqarish va axborotli texnologiyalardan ajralib turadi. Uning o'ziga xos xususiyati - tarbiya komponentlarini mujassamlashtirganidir.

Pedagogika o'quv jarayonida yuqori natijaga erishish yo'llarini doimo izlab kelgan va o'z vosita, usul va shakllarini hamma vaqt takomillashtirib kelgan. Ko'zlangan maqsadga erishish imkoniyatini beruvchi, qandaydir usul, yoki usullar majmuasini topish ilinjida bo'ldi. Buning natijasida turli metodikalar yaratildi. Pedagogik tajriba toraishi bilan yangi va samaraliroq metodlar yaratilmogda. Ammo, yangi uslubiyotlarni yaratish borasidagi amaliy ishlar natijasi, o'sib borayotgan talablarga hamma vaqt ham javob bermaydi. O'qitishdagi doimiylilik, rejalashtirilgan natijalarga erishish kafolati kabi muammolar o'z yechimini ko'tardi

Zamonaviy bozor iqtisodining shakllanishi korxonalar orasidagi raqobat asosida, xalq xo'jaligini barcha tarmoq va zvenolarning keskin rivojlanishini taqozo etadi. Chunki bozor iqtisodiyotini raqobatsiz tasavvur etib bo'lmaydi.

Korxonalar orasidagi raqobat o'z navbatida, fan -texnika va texnologiyani, ya'ni ilmiy texnika taraqqiyotining (ITT) jadallahuviga olib keladi. ITT ning jadallahuvi, hayotning barcha sohalarida tubdan isloh qilinishi natijasida jahon hamjamiyatiga qo'shilish imkoniyatini beradi. Avtoritar va shaxsga yo'naltirilgan o'qitish texnologiyalarining mohiyati o'qitish jarayonida, pedagog texnologiyalar talablari asosida ifoda etilgan o'quv maqsadlariga erishiladi.

Ilmiy-texnika taraqqiyot jadallahgan davrda o'qitish samaradorligi, asosan, o'quvchining o'qitish jarayonidagi o'rni, pedagogning unga bo'lgan munosabatiga boo'liq bo'ladi. Bu erda o'qitish texnologiyasining ikki turini ajratib ko'rsatish mumkin: avtoritar va shaxsga yo'naltirilgan.

Avtoritar texnologiyada, pedagog yagona sub'ekt sifatida namoyon bo'ladi, talablar esa faqatgina «ob'ekt» vazifasini bajaradi, xolos. Bunda tahsil oluvchining tashabbusi va mustaqilligi yo'qoladi, o'qitish majburiy yo'sinda amalga oshiriladi. Odatdagi an'anaviy o'qitish, avtoritar texnologiyaga taalluqlidir. Bunda, avvalo A.Komenskiy tomonidan ifoda etilgan, didaktika printsiplariga asoslangan o'qitishning sinf-dars tizimida tashkil etish nazarda tutiladi.

Hanuzgacha dunyoda eng ko‘p tarqalgan o‘qitishning sinf-dars tizimi, quyidagi xususiyatlari bilan ajralib turadi: - mashg‘ulotlarning asosiy birligi dars bo‘lib, u bitta fanning bitta mavzuga bag‘ishlanadi va o‘qituvchi tomonidan boshqariladi; - o‘quv kitoblari asosan uy ishlari uchun qo‘llaniladi. An’anaviy o‘qitish asosan bilim va ko‘nikmalarni o‘zlashtirishga qaratilgan bo‘lib, shaxsning rivojlanishini ko‘zda tutmaydi.

An’anaviy o‘qitish asosini, Ya.A. Komenskiy tomonidan tuzilgan pedagogika printsiplari tashkil etadi:

- ♦ ilmiylik;

- ♦ tabiatga monandlik(o‘qitish rivojlanish bilan belgilanadi, ammo shakllanmaydi); ♦ uzviylik va tizimlik;

- ♦ o‘zlashtiruvchanlik (ma’lumdan noma’lumga, soddadan murakkabga)

- ♦ mustahkamlik (takrorlash, takrorlash....)

- ♦ onglilik va faoliyat (qo‘yilgan maqsadni bilgan va buyruqlarni bajarishga faol bo‘lgan)

- ♦ nazariyaning amaliyot bilan boo‘liqligi.

Muammoli o‘qitish texnologiyasi muammoli o‘qitish amerikalik faylasuf, psixolog va pedagog Dj.Dunning nazariy qoidalariga asoslanadi va XX asrning 20-30-yillarida tarqala boshladi. Dj.Dyun o‘qitish uchun quyidagilarni asos qilib belgiladi: ijtimoiy, konstruktsiyalash, badiiy ifodalash, ilmiy-tadqiqiy. Bu asoslarni amalga oshirish uchun quyidagilar tavsiya etiladi: so‘z, san’at asarlari, texnik qurilmalar, o‘yinlar va mehnat. Bugungi kunda, muammoli o‘qitish deganda masho‘ulotlarda pedagog tomonidan yaratiladigan muammoli vaziyatlar va ularni yechishga qaratilgan o‘quvchilarning faol mustaqil faoliyati tushuniladi. Buning natijasida o‘quvchilar kasbiy bilimlarga, ko‘nikmalarga, malakalarga ega bo‘ladilar va fikrlash qobiliyatları rivojlanadi. [2]

Muammoli o‘qitish, o‘qitishning shaxsga yo‘naltirilgan texnologiyalarga taalluqli, chunki bu erda shaxs sub’ekt sifatida qaraladi, muammoli vaziyatlarning maqsadi - pedagogik jarayonda o‘ziga xos qiziqish uyo‘otishdir. Muammoli o‘qitish, o‘qitishning eng tabiiy samarali usulidir, chunki ilmiy bilimlar mantio‘i o‘zida muammoli vaziyatlar mantiqini namoyish etadi.

Muammoli vaziyatlar kiritilib, an’anaviy, bayon etish o‘quv materialining eng maqbul tarkibi hisoblanadi. Pedagog muammoli vaziyat yaratadi, o‘quvchini uni yechishga yo‘naltiradi, echimni izlashni tashkil etadi.

Muammoli o‘qitishni boshqarish pedagogik mahoratni talab etadi, chunki muammoli vaziyatning paydo bo‘lishi individual holat bo‘lib, tabaqlashtirilgan va individuallashtirilgan yondashuvni talab etadi. Muammoli o‘qitish, ijodiy jarayondan nostandard ilmiy-o‘quv masalalarni nostandard usullar bilan yyechishni taqozo etadi. Tahsil oluvchilarga mashq uchun beriladigan masalalar, olingan bilimlarni mustahkamlash va malakalar hosil qilish uchun xizmat qilsa, muammoli masalalar esa faqat yangi yechimlar izlashga qaratiladi.

O‘quv materialini muammoli taqdim etilishining mohiyati shundaki, unda o‘qituvchi bilimlarni tayyor holda taqdim etmasdan, o‘quvchilar oldiga muammoli masalalar qo‘yadi, ularni echimining yo‘llari va vositalarini izlashga undaydi. Muammo, yangi bilimlar va harakat usullar sari, o‘zi yo‘lga boshlaydi.

Muammoli o‘qitishda kechadigan jarayonlarning psixologik mexanizmi quyidagicha bo‘ladi: inson ziddiyatli, yangi, noma’lum muammoga (muammo - murakkab nazariy yoki amaliy masala bo‘lib, yashirin ziddiyatlarni qamrab oladi, uning echimi turli, hatto muqobil

vaziyatlarni talab etadi) duch keladi, unda hayratlanish, ajablanish holati paydo bo'ladi, «gap nimada?» degan savol tuo'iladi. O'quvchi noma'lum echimni topish uchun mustaqil yoki o'qituvchi yordamida izlanadi. Muammoni jamoaviy hal etishda paydo bo'luvchi sub'ekt-ob'ekt-sub'ekt munosabatlari ijodiy fikrlashni faollashtirishga olib keladi. Muammoli o'qitishning asosiy belgisi, bu ilmiy, o'quv yoki barcha faoliyat turlarida paydo bo'ladigan zaruriy ob'ektiv qarama-qarshiliklar aksi hisoblanadi. Bu esa barcha sohalarning harakatlantiruvchi va rivojlanuvchi manbaidir. Shu sababli muammoli o'qitishni rivojlanuvchi deb atash mumkin, zero uning maqsadi – bilimlarni, farazlarni shakllantirish, ularni ishlab chiqish va yechishdan iboratdir.

Muammoli o'qitishda fikrlash jarayoni faqat muammoli vaziyatni yechish maqsadida joriy etiladi, u nostandard masalalarni yechish uchun zarur bo'lgan fikrlashni shakllantiradi. [1]

Muammoli o'qitish samaradorligining to'rtta bosh sharti mavjud:

- muammo mazmuniga qarab yetarli qiziqish uyg'otishni ta'minlash;
- muammo echimidagi har bir bosqichda paydo bo'ladigan ishlarni bajara olish mumkinligini ta'minlash (ma'lum va noma'lumlar nisbatining maqbulligi);
- muammo echimida olinadigan axborotni o'quvchilar uchun muhimligi;
- pedagog va o'quvchi orasidagi munosabat xayrixohlik ruhida kyechishi, ya'ni o'quvchilar tomonidan bildirilgan barcha fikr va farazlar e'tiborsiz va ijobatsiz qolmasligi zarur.

Har qanday o'quv materiali ham muammoli bayon etishga mos kelavermaydi.

Zamonaviy pedagogik texnologiya boshqa sohalardagi texnologik jarayonlar bilan uzlusiz boyib boradi va an'anaviy o'quv jarayoniga, uning samarasini oshirishga ta'sir ko'rsatishning yangi imkoniyatlarini egallab oladi. O'quv - tarbiyaviy jarayonni texnologiyalashtirish tarixiy voqelik va jarayondir. Axborotlashtirish bu jarayondagi inqilobiy burilish va uning muhim bosqichidir. Oddiy til bilan aytganda, ta'lim tizimida axborot texnologiyasi – bu «o'quvchi yoki talaba – kompyuter» o'rtaqidagi muloqotdir.

Axborotli texnologiya pedagogik texnologiyaning tarkibiy qismi bo'lib, u ta'lim jarayonida texnik vositalarning mukammallashgan zamonaviy turi sifatida qo'llana boshlandi. Axborot texnologiyalari insoniyat taraqqiyotining turli bosqichlarida ham mavjud bo'lgan.

Hozirgi zamon axborotlashgan jamiyatining o'ziga xos xususiyati shundaki, «sivilizatsiya tarixida birinchi marta bilimlarga erishish va ishlab chiqarishga sarflanadigan kuch energiya, xom - ashyo, materiallar va moddiy iste'mol buyumlariga sarflanadigan xarajatlardan ortiq bo'ldi, ya'ni axborot texnologiyalari barcha mavjud texnologiyalar va xususan, yangi texnologiyalar orasida etakchi o'rinnegallamoqda.

Axborot texnologiyalarining rivojlanishida aqliy mehnat vositalarining o'zgarishi bilan bog'liq ikkita axborot inqilobi hal qiluvchi ta'sir ko'rsatdi. Birinchi inqilob kitob bosishning paydo bo'lishi bilan ro'y berdi va telefon, telegraf, radioning ixtiro qilinishi bilan chuqurlashdi.

Ikkinci inqilob elektron-hisoblash mashinalari (EHM)ning paydo bo'lishi va tez tarqalishi, EHM lokal tarmoqlarining yaratilishi, axborot resurslarini boshqarish tizimlarining tashkil etilishi bilan bog'liqdir. SHu bois yaqin kelajakda respublikamizdagi mavjud barcha o'quv yurtlari dasturli mashinalar bilan etarli darajada ta'minlash muammosi paydo bo'ldi. SHundagina axborotli texnologiya asosida talabalarning bilish faoliyatini tashkil etish va boshqarish imkoniyati tug'iladi va u o'qituvchining yaqin ko'makdoshiga aylanadi.

**XULOSA**

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, ta'linda innovatsion pedagogik texnologiyalardan foydalanish ta'limni sifatini ko'tarsa, innovatsion texnologiyalar ta'lim taraqqiyotini harakatga keltiruvchi kuchdir. Har bir jamiyatning kelajagi uning ajralmas qismi va hayotiy zarurati bo'lgan ta'lim tizimining qay darajada rivojlanganligi bilan belgilanadi. Bugungi kunda mustaqil taraqqiyot yo'lidan borayotgan mamlakatimizning uzlusiz ta'lim tizimini isloh qilish va takomillashtirish, yangi sifat bosqichiga ko'tarish, unga ilg'or pedagogik va axborot texnologiyalarini joriy qilish hamda ta'lim samaradorligini oshirish davlat siyosati darajasiga ko'tarildi.

**FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:**

1. Mirziyoyev Sh.M. Milliy taraqqiyot yo'limizni qat'iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko'taramiz. - Toshkent: "O'zbekiston", I jild. NMIU, 2017, - 592 b.
1. Z.A.Raxmonqulova va boshqalar. Maktabgacha ta'lim muassasalari rahbar xodimlarini o'qitish bo'yicha seminar modullari. Toshkent - 2010.
2. N.N.Azizzxo'jaeva "Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat" O'zbekiston yozuvchilar uyushmasi Adabiyot jamg'armasi nashriyoti. Toshkent-2006.
3. Avliyakulov N.H., Axmetjanov M.M., Tojiyev M., Musayeva N.N. Ta'lim texnologiyalari. - O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi - T.: «Fan va texnologiya», 2018. - 341 bet. ISBN: 978-9943-11-404-3
4. Saidaxmedov N.S. Yangi pedagogik texnologiyalar T., "Moliya", 2003y., 172 b
5. Internet saytlari materiallari.